I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-martida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 9 892,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yil yanvar-marti bilan taqqoslaganda 3,2 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 115,9 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo‘shgan hissasi 5,0 % ga yetdi.



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mlrd. so‘m		***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da*
	2022- yil	***2023- yil***	
I. YAHM, jami	**8 268,2**	**9 892,2**	**103,2**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	7 720,3	9 377,7	103,1
mahsulotlarga sof soliqlar	547,9	514,5	104,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**7 720,3**	**9 377,7**	**103,1**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**1 639,8**	**1 944,0**	**102,9**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**2 364,4**	**3 034,4**	**102,4**
sanoat	1 746,7	2 319,6	103,2
qurilish	617,7	714,8	100,1
xizmatlar	**3 716,1**	**4 399,3**	**103,7**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	727,8	842,3	101,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	544,7	644,1	106,4
boshqa xizmat tarmoqlari	2 443,6	2 912,9	103,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 833,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 1,0 % ga yuqoridir.

Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur’atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 94,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 20,7 % ni, sanoat tarmog’i 24,7 % ni, qurilish 7,6 % ni va xizmatlar sohasi 47,0 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	*2023- yil*
I. YAHM, jami	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	93,4	94,8
mahsulotlarga sof soliqlar	6,6	5,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**100,0**	**100,0**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**21,2**	**20,7**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**30,6**	**32,3**
sanoat	22,6	24,7
qurilish	8,0	7,6
xizmatlar	**48,2**	**47,0**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9,4	9,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,1	6,9
boshqa xizmat tarmoqlari	31,7	31,1

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)





Yalpi qo‘shilgan qiymat Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 102,9 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 20,7 %), sanoatda – 103,2 % (24,7 %), qurilishda – 100,1 % (7,6 %), xizmatlar sohasida – 103,7 % ni (47,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 101,6 % (9,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 106,4 % (6,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (31,1 %) iborat bo‘ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilga nisbatan % da)



YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i – 0,6 f.p. (2022- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,7 f.p. (2022- yilning yanvar-martida – 0,9 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi - 1,6 f.p. (2022- yilning yanvar-martida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) ga ko‘paydi.

2023- yilning yanvar-martida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2023-yil yanvar-mart oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2022-yildagi narxlarga nisbatan 115,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 128,7 % va qurilishda – 115,6 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi
(o‘tgan yilga nisbatan % da)



Yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 56,9 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-martida – 58,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.